



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrda
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
7 (11)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Shivirlaydi betnim
daryo

4
bet

"Me'yor ul - ash'or"
risolasida aruzga doir
ritmik birliklarning
berilishi

8
bet

Код-свитчинг
в современной
узбекской
коммуникации

34
bet

Rauf Muzaffarzoda
maqolalarida madaniyat
va ma'rifat, ta'lim-tarbiya
mavzularining yoritilishi

92
bet



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
7 (11)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:

Emma Torosyan

Shaxina Muxamedjanova

Nargiza Sotvoldiyeva

Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot

orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 25.07.2025 da

nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"

davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TAHRIR HAY'ATI:

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti
katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

G'ayrat Majid. Shivrilyaydi betinim daryo	4
Mavluda Satiyeva. “Me’yor ul – ash’or” risolasida aruzga doir ritmik birliklarning berilishi	8
Mahbuba Quvondiqova. Teolingvistikaning umumbashariy ahamiyati va o’rganilishi.....	10
Ma’mura Norjigitova. Mifologemaga doir nazariy qarashlar talqini	12
Maysara Po’latova. Ogahiyning “Ustina” radifli g’azalida so’z qo’llash mahorati.....	14
Gulnora Umarova. “Hayrat ul-Abror” dostonida talmeh badiiy san’atining qo’llanilishi	16
Dilafro’z Jabborova. “O’tkan kunlar” romani poetikasi talqini	19
Xurshida Karimova. Xitoy tilidagi quyosh energetikasi sohasiga oid neologizmlar tahlili.....	21
Мухаббат Буриева. Стихотворения Есенина – искренняя исповедь его романтической души	24
Угиллой Кусанова. Лингвистические и экстралингвистические трудности в организации дискурса	26
Халима Атаджанова. Семантическая организация фразеологических единиц в русском языке (на материале числительных)	29
Насибахон Пазилова. Психолингвистический подход к когнитивным и прагматическим механизмам интерпретации личных местоимений в узбекском, русском и английском языках	31
Назирахон Муродова. Код-свитчинг в современной узбекской коммуникации.....	34
Yusuf Nurmuxammedov. Maqollarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari	36
To’lg’ano’x Xoliyorova. O’zbek tili milliy korpusini takomillashtirish va boyitishning nazariy va amaliy asoslari.....	38
Dilobar Babaqulova. “Aqliy faoliyat” tushunchasi va uning tilda ifodalanishi.....	39
Asliddin Ismatov. Ingliz xalq ertaklarining kommunikativ strategiyasi va fonetik xoslanishi	41
Oybek Nurjonov. Qoraqalpog’istondagi o’zbek shevalari evfemizmlarining etnomadaniy talqini	42
Sitora Tojiddinova. O’zbek nasrida “Boburnoma” va Bobur haqidagi ijod namunalari.....	44
Salim Doniyorov. Yangi O’zbekistonni barpo etish jarayonlarini yoritishda an’anaviy ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.....	47
Gulnora Narimova. O’zbek tilini o’qitishda pedagogik-psixologik jihatlarining funksional tahlili.....	50
Nilufar Omonova. Atoiy she’riyatida tabiat bilan bog’liq poetik obrazlar tasviri	52
Gulbahor Ernazarova. She’riyatda mumtoz mohiyat: milliylik va an’anaviylik.....	54
Nargisa Akhmedova. Innovative Language Teaching Strategies for Art Students: Using Miniature Paintings to Build Creative Competence.....	56
Shahnoza Tairova. From bard to barter: enduring idioms coined by Shakespeare	58
Zilola Khaknazarova. Integrating neuropedagogical strategies into foreign language education	62
Janar Seyda Abdurakhimova. Improving English Language Instruction for Information and Communication Technology Students Through a Deep Learning Approach.....	64
Makhlilo Kamolova. Main content of design and constructory competence of future engineers	66
To’lqin Pardayev. Badiiy xronotop nazariyasining janrlar kontekstidagi ahamiyati.....	69
Ravshan Niyazov. Amerika belletristikasida Jon Grishamning hikoya metodi	72
Turaxon Qoraxonov. Shavkat Rahmon she’rlarida muhabbat chizgilari.....	74
Musayeva Nozima. Trends in podcast-assisted L2 listening: a bibliometric overview (2019–2025).....	76
Ravshan Niyazov. Zamonaviy amerika adabiyotida detektiv janrning turlari va o’ziga xosligi.....	80
E’tibor Murodova. O’zbek va ingliz paremiyalari milliy va madaniy o’ziga xoslikni namoyon etuvchi vosita sifatida	82
Nigina Izamova. Detektiv asarlarning jamiyat hayoti va ma’naviy rivojidadagi ahamiyati.....	84
Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi boyo’g’li obrazining poetik talqini.....	86
Diloromxon Turg’unboyeva. Pul va ijtimoiy tabaqalanish: “boy” va “kambag’al” tushunchalarining sotsiolingvistik manzarasi va pulga oid vulgarizmlarning tilda aks etishi	88
Zamira Abdujabbarova. Lisoniy-kognitiv yondashuvlar: raqamli davr kontekstida madaniy kodlar va semantika	90
Ozoda Yusupova. Rauf Muzaffarzoda maqolalarida madaniyat va ma’rifat, ta’lim-tarbiya mavzularining yoritilishi	92
Yulduz Shodmonaliyeva. Tasdiq va inkorni ifodalovchi birliklar tadqiqi	95
Александра Каландарова. Виды языкового воздействия на аудиторию в массмедийном дискурсе	99

E'tibor MURODOVA<

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ PAREMIYALARI MILLIY VA MADANIY O'ZIGA XOSLIKNI NAMOYON ETUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada paremiologiya xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan maqol va matallarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan sifatida yoritiladi. Paremiologiyaning mazmuni, o'rganish obyekti, til va madaniyatdagi o'rnini chuqur tahlil qilinadi. O'zbek va ingliz tillaridagi paremiyalar qiyosiy-tipologik jihatdan solishtiriladi, ularning umumiy va milliy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, paremiyalarning xalq tafakkuri, qadriyatlarini, tarixiy tajribasini ifodalovchi vosita sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada til va madaniyat o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, maqol va matal, xalq og'zaki ijodi, o'zbek paremiyalari, ingliz paremiyalari, qiyosiy tahlil, madaniy kontekst, milliy o'ziga xoslik, lingvistik tahlil.

Annotation. This article examines paremiology as a linguistic science that studies proverbs and sayings as elements of folk oral literature. The content, object of study, and the significance of paremiology in the context of language and culture are explored. A comparative-typological analysis of Uzbek and English paremias is provided, focusing on their common and nationally specific features. Special attention is given to the role of paremias as a means of expressing folk thought, values, and historical experience. The article emphasizes the interconnection between language and culture.

Keywords: Paremiology, proverbs and sayings, folk oral literature, Uzbek paremias, English paremias, comparative analysis, cultural context, national features, linguistic analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается паремиология как лингвистическая наука, изучающая пословицы и поговорки как элементы народного устного творчества. Раскрываются содержание, объект изучения и значение паремиологии в контексте языка и культуры. Приводится сопоставительно-типологический анализ узбекских и английских паремий, рассматриваются их общие и национально-специфические черты. Особое внимание уделяется роли паремий как средства выражения народного мышления, ценностей и исторического опыта. В статье подчеркивается взаимосвязь языка и культуры.

Ключевые слова: Паремиология, пословицы и поговорки, устное народное творчество, узбекские паремии, английские паремии, сопоставительный анализ, культурный контекст, национальные особенности, лингвистический анализ.

Paremiologiya so'zi grekcha "paranomia" so'zidan olingan bo'lib hikmat, ta'limot degan ma'nolarni bildiradi va ma'lum bir tilga xos bo'lgan, xalqning turmush tarzi, ma'daniyati, ijtimoiyqadriyatlarini, axloqiy me'yorlari, yillar davomida orttirgan tajribasi va kuzatuvlari asosida shakllangan avloddan avlodga ko'chib yuruvchi maqol, matal, hikmatli so'z va iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. Paremiologiyaning o'rganish obyekti hisoblangan eng kichik yaxlit fikrni ifodalovchi birligi "parema" deb ataladi. Xalq paremiologik ijodi folklorning alohida va mustaqil turidir. Unda xalq e'tiqodi va ma'daniyatining tarixi o'z aksini topgan. Uning aynan xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi va avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgani va paremalarda turli xil badiiy tasvir vositalari jumladan qofiyalash, kesatiq, kinoya, taqqoslash, metafora, o'xshatishlar qo'llanilganligi uchun adabiyotshunoslik fanining ham o'rganish obyekti sanaladi.

So'zlardan tuzilib ma'lum bir yaxlit fikrni ifodalashga qaratilgan gap shaklida bo'lganligi uchun tilshunoslikda ham o'rganiladigan paremiologiya sohasi mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatdan o'ziga xos hisoblanadi. Paremiyalar tilning rivojlanishi va o'zgarishini kuzatishda yordam beradi va tilning boyligini ko'rsatadi. Har bir paremiya o'z ichida ma'no va kontekstni saqlaydi, bu esa tilning rang-barangligini oshiradi. Bundan tashqari paremiyalar orqali tilning semantik strukturasi o'rganish mumkin. Ular ko'pincha ma'noni kengaytirish yoki toraytirish uchun ishlatiladi.

Paremiyalar bu madaniyatning ko'zgusi sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat tilning go'zalligini, balki xalqning ruhiyatini ham ifodalaydi. Har bir paremiya o'z ichida ma'naviy qadriyatlarini saqlaydi va kelajak avlodlarga yetkazadi. Paremiyalar milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Ular xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va an'alarini saqlab qolish uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir millat o'ziga xos paremiya tizimiga ega bo'lib, bu tizim uning madaniy merosini tashkil etadi. Paremiyalar millatning o'ziga xosligini belgilovchi muhim elementdir. Ma'lum bir til leksikasidagi maqol va matal kabi xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish orqali shu tilda gaplashuvchi xalqning madaniyati, kelib chiqish tarixi va hayot tarzi bilan yaqindan tanishish va uni boshqa til va millat vakillari bilan qiyosiy tahlil qilish mumkin. Zero, XIX asrda yashagan V.I. Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi "Maqol ... to'qib chiqarilmaydi, u o'z-o'zidan dunyoga keladi" degan. "Maqollarni o'rganmay turib, "xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o'ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan "etnografiya"ni chetlab o'tish mumkin emas".

Hozirgi zamon tilshunoslikda paremiyalarning qiyosiy-tipologik tadqiqi dolzarb hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi paremiyalarni solishtirganda, ularning ko'plab umumiy jihatlari mavjud. Masalan, har ikkala til ham hayot tajribasi, tabiat hodisalari va inson munosabatlariga asoslangan iboralarni o'z ichiga oladi. Biroq, milliy xususiyatlar ham mavjud. O'zbek paremiyalari ko'pincha

qishloq hayoti, dehqonchilik va an'anaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz paremiyalari ko'proq sanoat, iqtisodiyot va zamonaviy hayot bilan bog'liqdir.

O'zbek paremiyalarining milliy o'ziga xosligi haqida fikr yuritish ekanmiz, xalqning tarixiy tajribasini, urf-odatlarini va an'alarini o'zida mujassam etuvchi maqollar ko'pincha o'zbek xalqining turmush tarzi, tabiatga bo'lgan munosabati, mehnat qadriyatlari va oilaviy aloqalari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash zarur. Masalan, "Ona yerga hurmat – insonga hurmat" maqoli yerga bo'lgan e'tibor va mehnatni qadrlashni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, o'zbek paremiyalari ko'plab mantiqiy va axloqiy g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ular insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, adolat va haqiqiylikni ta'kidlaydi shu bilan birga yosh avlodga to'g'ri yo'lni tanlashda, yomonlikdan yiroq bo'lishda pand nasihat sifatida amal qiladi. O'zbek paremiya va maqollari ko'plab hikmatli so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek paremiyalari o'zida milliylikni aks ettiruvchi ko'plab misollar mavjud. Ular o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'alarini, qadriyatlarini va hayotiy tajribalarini ifodalaydi. Quyida bunday paremiyalardan ba'zilari keltirilgan:

"Yolg'iz otning changi chiqmas." Bu ibora hamkorlik va jamoaviy ishning ahamiyatini ifodalaydi.

"Ona yurtning – oltin beshiging." O'z vataniga, ona yurtiga bo'lgan muhabbatni aks ettiradi.

"Kichkina bolaga katta gap aytma." Bu ibora yosh avlodga nisbatan ehtiyotkorlik va ularga mos ravishda muomala qilish zarurligini ta'kidlaydi.

"Yetti o'lchab bir kes." O'zbek xalqining sabr-toqat va mulohaza qilishga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi.

"Ota-onani hurmat qil, umr bo'yi baxtli bo'l." Ota-onaga bo'lgan hurmat va ehtiromni ta'kidlaydi, bu esa o'zbek millatining axloqiy qadriyatlaridan biridir. Bu kabi paremiyalar o'zbek xalqining madaniyati, urf-odatlarini va hayotiy tajribalarini aks ettiradi, shuningdek, milliy identitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ular xalq og'zaki ijodining bir qismi sifatida avlodlar o'rtida kelmoqda.

Zamonaviy hayotda ham o'zbek paremiyalarining ahamiyati yo'qolmagan. Ular ijtimoiy tarmoqlarda, adabiyotda va kundalik muloqotda keng qo'llaniladi. Yosh avlod o'z madaniyatini anglab yetishi uchun paremiyalarni bilishi va ulardan foydalanishi muhimdir. Bu esa milliy identitetni saqlashda va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz paremiyalarining eng asosiy va yaqqol namoyon bo'lib turuvchi xususiyati bu ularda ma'daniy kontekstning aks etishi hisoblanadi. Ingliz paremiyalari ingliz xalqining tarixi, an'analari va hayot tarzini aks ettiradi. Ular ko'pincha

ma'lum bir madaniy kontekstda paydo bo'lgan va shu kontekstda tushunilishi kerak. Misol uchun "When in Rome, do as the Romans do" paremiyasi boshqa joyga borganda aynan o'sha yurtning an'anava urf odatlariga rioya qilish kerakligini anglatadi va bu ingliz madaniyatidagi mehmondo'stlik va moslashuvchanlikni aks etadi. Bundan tashqari paremiyalar qisqa va lo'nda bo'lib, murakkab fikrlarni oddiy va tushunarli shaklda ifodalaydi. Bu ularni eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan "A penny saved, a penny earned" paremiyasi pulni tejashning muhimligini ifodalaydi. Qisqa va aniq shaklda tejashning qiymatini ta'kidlaydi. Ko'plab ingliz paremiyalari metaforalarga asoslangan bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki tasviriy ravishda ifodalanadi. Bu esa ularni yanada qiziqarli va chuqurroq qiladi. Bunday paremiyalarga na'muna sifatida "Don't count your chickens before they hatch" paremiyasini keltirish mumkin. Ushbu paremiya kelajakdagi mavaffaqiyatlarni oldin taxmin qilmaslik kerakligini anglatadi va bu ma'noni ko'chma usulda ifodalaydi. Ingliz paremiyalari ko'pincha insoniy tajribalar, munosabatlar, mehnat va hayotning turli jihatlari bilan bog'liq universal mavzularni qamrab oladi. Ular inson hayot tajribasidan kelib chiqib mantiqiy va axloqiy saboqlarni o'z ichiga oladi muayyan nasihatlarini ifodalaydi. Paremiyalar zamon o'tishi bilan o'zgarishi yoki yangilanib borishi mumkin. Yangi sharoitlar yoki ijtimoiy o'zgarishlar sababli eski paremiyalar yangi ma'nolar olishi yoki yangi variantlari paydo bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi ko'plab paremiyalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning bir-birini to'ldiruvchi yoki qarama-qarshi ma'nolari mavjud. Bundan tashqari paremiyalar ijtimoiy qatlamlar guruhlar orasida farq qiladi. Masalan shahar madaniyati, qishloq hayoti yoki turli kasblar vakillarining o'zlariga xos paremiya va iboralar bo'lishi mumkin. Bu esa ularni yanada boyitadi. Ushbu xususiyatlar ingliz paremiyalarini o'ziga xos va qiziqarli qiladi, shuningdek, ularning o'rganilishi til va madaniyatni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ular boshqa tillarga tarjima qilganda, ma'nosi va konteksti o'zgarishi mumkin, zero ma'lum bir paremiya yoki iboraning boshqa tildagi alternativini topish mushkul. Shu sababdan nafaqat tilning o'ziga xosligini balki uning madaniyati va tarixini ham aks ettiruvchi paremiyalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Paremiologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning uzviy bo'lagi bo'lib, til orqali xalq ruhiyati, qadriyatlari, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini o'rganishga xizmat qiladi. Har bir paremiya milliy madaniyatning ko'zgusi bo'lib, u til boyligini, xalq tafakkurini va ijtimoiy ongini aks ettiradi. Ular chuqur o'rganish esa nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural tahlillar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyev X., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Rahimova Z. Frazema va Parema munosabati masalasi. / An'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2014, №4.
3. G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Bayonxanova I.F. Paremiyalarning turli tizimdagi tillarda umumiy xususiyatlari. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2014.
5. Gadoyeva M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi (folklorning kichik janrlari misolida): Filol. fan. dok. diss... – Buxoro, 2022.
6. Boltayeva B.I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil): Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Samarqand, 2019.
7. Karimov U., Brown L. Linguistic and cultural aspects of proverbs and sayings with anthropomorphic elements in English and Uzbek languages. // Journal of Intercultural Communication Studies. – 2016. – Vol. 24, No. 2. – P. 78–92.
8. Rahmanova S. A comparative study of linguistic and cultural aspects of proverbs and sayings with anthropomorphic features in English and Uzbek languages. // International Journal of Language and Literature. – 2018. – Vol. 5, No. 1. – P. 35–48.
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Nigina IZAMOVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

DETEKTIV ASARLARNING JAMIYAT HAYOTI VA MA'NAVIY RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Detektiv janr jahon adabiyotida nafaqat syujet rivoji nuqtayi nazaridan, balki tiluslub, xarakter yaratish va jamiyat tahlili kabi jihatlardan ham chuqur o'rganilmoqda. Bugungi kunda bu janr o'zining ko'p qirrali tabiati, dolzarb mavzularni ilgari surishi va o'quvchini fikrlashga undovchi xususiyatlari bilan ilmiy izlanishlar uchun maydon hisoblanadi. Ushbu maqolada detektiv janrning jamiyat hayoti va ma'naviy rivojiga ta'siri R.Chandler, D.Hammett, T.Malik va K.Sindarov asarlari misolida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: detektiv, ijtimoiy-siyosiy muammolar, izquvar (detektiv), jinoyat.

Annotation. The detective genre in world literature is studied not only from the perspective of plot development but also through the lens of style, language, character creation, and social analysis. Today, this genre represents a relevant topic for scientific research due to its multifaceted nature, its ability to raise significant issues, and to stimulate readers to deep reflection. This article examines the significance and influence of the detective genre on social life and the spiritual development of the individual, as well as analyzes the works of R.Chandler, D.Hammett, T.Malik and K.Sindarov.

Keywords: detective, socio-political issues, detective, crime.

Аннотация. Детективный жанр в мировой литературе изучается не только с позиции развития сюжета, но и через призму стиля языка, создания характеров и анализа общества. Сегодня этот жанр представляет собой актуальную научно-исследовательскую тему благодаря своей многогранной природе, способности поднимать значимые проблемы и стимулировать читателя к глубоким размышлениям. В данной статье рассматривается значение и влияние детективного жанра на общественную жизнь и духовное развитие личности, а также проводится анализ произведений Р.Чандлера, Д.Хэммета, Т.Малика и К.Синдарова.

Ключевые слова: детектив, общественно-политические вопросы, сыщик, преступление.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda detektiv janri doimiy modifikatsiyasi, jamiyatdagi eng nozik xilqatlarni fosh etuvchi va unga qarshi kurashuvchi vosita bo'lgani uchun ko'pgina adabiyotshunos olimlar va tanqidchilarning tadqiqot obyektidir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan ingliz yozuvchisi, shoir, “paradokslar shahzodasi” G.K.Chesterton o'zining “Detektiv hikoyalar himoyasi” (A defense of detective stories) nomli maqolasida detektiv adabiyotning ko'p qirrali qiymatlarini sanab o'tadi va unga shunday baho beradi: “Detektiv hikoya nafaqat san'atning to'la-to'kis qonuniy shakli hisoblanadi, balki u xalq farovonligi uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida aniq va real ustunliklarga ega” [1: 1]. Klassik detektiv janri vakillaridan biri S.S. Van Dayn detektiv hikoyani adabiy badiiyat va murakkab tafakkur vositasi sifatida ko'rgan va bu janrga nisbatan jiddiy e'tibor berilishiga harakat qilgan. U o'z maqolasida shunday deydi: “Detektiv hikoya – aql-zakovat o'yining bir turidir” [2: 189]. Yozuvchi asarlari orqali detektiv janrga o'ziga xos intellektual uslub olib kirgan. Bu janr insonni fikrlashga, jinoyatni ochish uchun berilgan ishoralarni tahlil qilishga undaydi, aqlni charxlaydi.

Amerikalik olim Leroy Panek detektiv janrni har tomonlama o'rganib, janr muammolariga atab o'ndan ortiq tanqidiy, ilmiy asarlar yozgan. “Asosli gumon: Amerikada jinoyat adabiyoti” (“Probable Cause: Crime fiction in America”) asarida detektiv janrning kelib chiqish tarixini va unga sabab bo'lgan omillarni o'rgansa, “Detektiv hikoyaning muhim unsurlari” (The essential elements of the detective story)da detektiv hikoyalarning shakllanishiga Amerika va Yevropadagi ijtimoiy o'zgarishlar – sanoat inqilobi, shaharlashuv, jinoyatchilikning o'sishi, matbuotning rivojlanishi kabi omillar qanday ta'sir qilganini tahlil qiladi: “Angliyadagidek, AQShda ham katta-kichik do'konlar jinoyatchilar uchun nishonga aylandi. Darhaqiqat, mijozlarga mahsulotlarga qo'l tekkizishga ruxsat berilgan yangi katta savdo markazlarining paydo bo'lishi 1860-yillardan so'ng detektiv hikoyalarda aks ettirilgan yangi turdagi jinoyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi” [3: 201]. Demak, jamiyatda yuz berayotgan jinoyatlar aynan detektiv janrning ommapob bo'lishiga zamin yaratgan. Mavzulardagi xilma-xillik esa janrninigi turlarga ajralishiga sabab bo'lgan.